

Dars maqsadi:

- oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq global va mahalliy muammolarni tahlil qilish;
- kuzgi tengkunlik va Hosil bayramining tarixiy, ekologik va madaniy jihatlarini anglash;
- fikr yuritish va munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish;
- tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni izohlab berish;
- ijodiy va izlanuvchan yondashuvni rivojlantirish;
- ijtimoiy loyiha: biznes reja yaratish;
- turli manbalar bilan ishlash, axborotni saralash va tahlil qilish ko'nikmasini mustahkamlash.

3. Kutilayotgan natija:

- o'quvchi oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasini chuqur tushunib, uning muhimligini misollar orqali asoslab beradi;
- kuzgi tengkunlik va Hosil bayramining tarixiy va madaniy ahamiyatini anglab, ularning milliy qadriyatlarimizdagi o'rnini bayon qila oladi;
- guruhlarda o'tkazilgan loyihada faol qatnashib, biznes reja taqdim etadi;
- tabiat ne'matlaridan to'g'ri foydalanish va mehnatni qadrlash ko'nikmasiga ega bo'ladi;
- axborot manbalarini tahlil qiladi va ular asosida xulosalar chiqara oladi.

4. Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

5. Mashg'ulot shakli: aralash (yangi bilim beruvchi, mulohaza yurituvchi)

6. Kerakli jihozlar: rasmlar, videolavha, doska, quruq meva namunalari (ixtiyoriy), interfaol topshiriqlar, taqdimot.